



JANUBIY O'ZBEKISTON ORONIMIYASIDA NOMLANISH TAMOYILLARI, USULLARI VA TURLARINING NAMOYON BO'LISHI

Beginov Odil To'xtamishovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10162922>

ARTICLE INFO

Received: 14th November 2023
Accepted: 20th November 2023
Online: 21th November 2023

KEY WORDS

Onomastika, toponimika,
oronimika, atoqli ot, turdosh ot,
apellyativ, nominatsiya.

ABSTRACT

Nominatsiya nazariyasi zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Nominatsiya jarayoni - bu nominatsyaning o'ziga xos xususiyatlari, voqelikning alohida elementlarga bo'linishi, belgilar tizimidan foydalangan holda semantik tarkibni aniqlash usullari va boshqa ko'plab savollarni o'z ichiga olgan murakkab hodisadir. Maqolada shunday hodisalar tadqiq etilgan.

KIRISH

Har qanday toponimik tizimga tegishli nomlar ob'jeektlarning xususiyatlarini aholining sub'ektiv idroki orqali, ularning iqtisodiy ahamiyati, muayyan shaxslarga yoki boshqa ob'jeektlarga bo'lgan munosabati orqali aks ettiradi. Bu, o'z navbatida, nomlanish tamoyillari, usullari, turlarida o'z ifodasini topadi.

Nominatsiya nazariyasi zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Nominatsiya jarayoni - bu nominatsyaning o'ziga xos xususiyatlari, voqelikning alohida elementlarga bo'linishi, belgilar tizimidan foydalangan holda semantik tarkibni aniqlash usullari va boshqa hal qilinishi kerak bo'lgan ko'plab savollarni o'z ichiga olgan murakkab hodisadir. Ilmiy adabiyotlarda nominatsiya tushunchasi haqida turlicha talqin va ta'riflarni kuzatish mumkin. Nominatsiya tushunchasini N.V. Podol'skaya quyidagicha ta'riflaydi: "Nominatsiya [onomastikada] - 1. nomlash funktsiyasi (nomlash, nominativ funktsiya). 2. Atash, nomlash, nom berish, nomlash jarayoni" [6, 91].

Nominatsiya - nominativ funktsiya bilan tavsiflangan lingvistik birliklarning shakllanishi, ya'ni voqelik qismlarini nomlash va ajratish va ular haqida so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar va jumlalar shaklida tegishli tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi." [2, 336].

Nominatsiya termini tor va keng ma'jnoda qo'llanilishi mumkin. Tor ma'jnoda nominatsiya - bu narsa yoki hodisalarni til vositasida belgilash. Keng ma'jnoda nominatsiya - bu tashqi va ichki tajriba elementlarini va shaxsning bilish va tasniflash faoliyati natijalarini belgilash jarayoni. Nominatsiyani dinamik va statik jihatlarda ko'rib chiqish mumkin. Birinchi holatda nomlash jarayoni sifatida, ikkinchi holatda esa shu jarayonning natijasi sifatida qaraladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan tarixiylik tendentsiyaga, yaъni maъlum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilishga asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy bazasini zamonaviy tilshunoslikning onomosologiya sohasida qo'llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Shuningdek, toponimlarning lingvistik tadqiqida umumiylig va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg'unlashgan dialektik qonuniyatlarga asoslanadi.

Tadqiqotning asosiy usuli sifatida qiyosiy-tarixiy, qayta tiklash, tuzilish va shakllanishiga ko'ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Atoqli va turdosh otlar ijtimoiy va tarixiydir, chunki ular nafaqat maъlum bir davrning ijtimoiy holatini aks ettiradi, balki odamlarning dunyoqarashi, munosabatlari, anъanalalarini ham tavsiflaydi. Motivatsiyalar asosidagi faktlar yig'indisi onomastik universallikni tashkil qiladi.

A. V. Superanskaya tabiiy ravishda shakllangan nominatsiyalarni ajratib ko'rsatadi - ular nisbatan birlamchi va kengqamrovlidir; har qanday turdag'i obъektlarni belgilash va ajratish uchun maxsus kiritilgan nominatsiyalar - ular, o'z navbatida, nisbatan ikkilamchi va ko'proq yoki kamroq cheklangan hududlarga taalluqlidir [3, 236].

Nominatsiya tamoyili deganda nomlarning yaratilish yo'li, yo'nalishi, umumiylig boshlang'ich asosi, nom va denotat (til birligi bilan ifodalanadigan obъekt, hodisa) o'rtasidagi bog'lanishni aks ettirish jarayoni bo'lgan nominatsiyaning umumlashgan qoidasi tushuniladi. Bu bog'lanishning bevosita lingvistik asosi nominatsiya usuli va aniqrog'i, xilma-xilligidir. Nominatsiya uchun ishlatiladigan asoslarning barcha semantik xilma-xilligi, qoida tariqasida, quyidagi sxemaga to'g'ri keladi: obъektning turli belgilari bo'yicha nomlanish printsipi, obъektni shaxs faoliyati bilan bog'liq bo'lgan nomlanish printsipi va obъektni boshqa obъektlar bilan bog'liq bo'lgan nomlanish printsipi. Bu tamoyillar Janubiy O'zbekiston oronimiyasi uchun ham tegishlidir.

Shunday qilib, toponimlar uchun bu obъektlarning turli-tumanligi, joylashgan o'rnini xarakterlovchi, ulardan kelib chiqqan taassurotlarni, ular bilan bog'liq voqeliklarni, ularni maqsadi yoki asosiy ishlatilishini, bir obъektning boshqasiga munosabatini, shaxs nomlanishining mazkur hududga shunday yoki boshqacha bog'liq ekanligini, obъektning diniy yoki mafkuraviy maqsadiga bog'liq holda nomlanishini; antroponimlar uchun insonning jismoniy, aqliy, biologik, axloqiy, intellektual xususiyatlari, uning ijtimoiy, milliy, hududiy mansubligi, oilaviy rishtalari ularning motivatsiyasini belgilovchi asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi [3, 244-246].

Nomlanish tipi umumiylig semantik belgilari bilan birlashgan nomlar guruhidir. Semantika nuqtai nazaridan nomlanishning uchta asosiy tamoyiliga mos keladigan uchta turni ajratish mumkin. Semantik tip oraliq tasniflarga bo'linishni - semantik kichik tiplarni (guruhlarni) birlashtiradi. Bu kichik tiplar motivlashganligi yoki motivlashmaganligi, etimologiyasi, majoziy vositalari va maъlum bir toponimlar guruhining individual xususiyatlari kabilarni o'z ichiga oladi. Semantik tip geografik obъektni nomlash uchun asos sifatida olingan boshlang'ich apellyativ qiymatini ifodalovchi semantik modellari asosida amalga oshadi.



Nomlanish usuli nominatsiyaning maʼtum bir tamoyili qaysi lingvistik vositalar yordamida amalga oshirilishini koʼrsatadi. Onomastik nominatsiya oʼz usuliga koʼra asosan leksik birliklar - soʼzlar va soʼzlarning ekvivalentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Agar biz oronimlarning eng maqbul semantik tahliliga eʼtibor bersak, unda atoqli otlarning uchta usuldan biriga (barcha nomlarning turdosh otlardan yasalgan nomlarga va atoqli otlardan yasalgan nomlarga boʼlinishini hisobga olingan holda) asoslanishini guvohi boʼlamiz: apellyativlarning oronimlashuvi (apellyativlardan kelib chiqqan oronimlar); atoqli otlarning oronimlashuvi (atoqli otlardan kelib chiqqan oronimlar – antroponimlardan kelib chiqqan oronimlar va toponimlardan kelib chiqqan nomlar); boshqa atoqli otning bir vaqtida transonimizatsiyasi natijasida apellyativni onimizatsiyalashuvi (aralash usul) - nom soʼz birikmasi kabi ikki yoki koʼp asosli leksema hisoblanadi. Nomlanishning alohida usuli onimizatsiya (oronimizatsiya), yaʼni apellyativning tarkibiy oʼzgarishlarsiz oronimga oʼtishi hisoblanadi.

Toponimik semantikaning mintaqaviy oʼziga xosligi alohida semantik modellarning afzalligi va faolligida namoyon boʼladi, bu ham lingvistik (oʼziga xos onimik material), ham ekstralolingvistik (tarix, hudud geografiyasi) omillari bilan belgilanadi.

Janubiy Oʼzbekiston oronimlarining semantik xususiyatlari eʼtibor beraylik. Orografik obʼektlarni nomlash jarayonida orografik obʼekt turining joylashgan oʼrni, tuzilishi, shakli, ularga egalik qilgan yoki boshqa jihat bilan bogʼliq kishilar nomlari, turli diniy va ilohiy tushunchalar, mazkur obʼektda yoki uning atrofida oʼsadigan oʼsimliklar, daraxtlar, hayvonlar, parrandalar va turli jonzotlar hamda obʼektning belgi-xususiyatlari motiv vazifasini bajarib keladi. Orografik obʼektlarning nomlanish jarayonida asosiy markazda nomlovchi, yaʼni nominator faoliyati yotadi. Nomlovchi (nominator) orografik obʼektgaga tegishli turli belgi-xususiyatlarni nomlanishning biron-bir tamoyili asosida tanlashi bilan bogʼliq boʼlgan murakkab jarayon natijasida oronimlar vujudga keladi.

Orografik obʼektlarning nomlanishida nisbiylik tamoyili kuzatiladi. Nisbiylik tamoyili biron-bir orografik obʼektgaga tegishli belgi-xususiyatni boshqa obʼektgaga qiyoslash, taqqoslash va solishtirish asosida uning belgilaridan birini tanlab olishda namoyon boʼladi. Nisbatlash koʼpincha orografik obʼekting joylashgan oʼrni, hajmi, shakli, maza-taʼmi, rang-tusi kabi belgi-xususiyatlaridan kelib chiqadigan tushunchalarga asoslanadi. Nisbiylik tamoyili asosida orografik obʼektlarni nomlash jarayoni toponimlarning boshqa turlarida boʼlgani kabi uch xil munosabatga, yaʼni belgilovchi obʼekt, nomlanayotgan orografik obʼektlar va nomlovchi munosabatiga asoslanadi.

Orografik obʼektlarning nomlanishida transonimizatsiya hodisasi kuzatiladi. Bu hodisa joy nomlarining faollik darajasini oshiradi, nomlarning vazifasini yuksaltiradi, nomlar aro munosabatlarni rivojlantiradi va tartibga soladi. Ayni paytda, transonimizatsiya nomlarni nutqda qoʼllash jarayonida tejamkorlikni yuzaga keltiradi, nutq imkoniyatlarini kengaytiradi.

Transonimizatsiya – onomastikada universalizmni yaratuvchi va taʼminlovchi nutqiy-lisoniy, sotsial-ijtimoiy, tarixiy-maʼnaviy hodisa. Transonimizatsiya yondosh obʼektlar orasida yuz beradi. Yangi obʼekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, yonidagi obʼekt nomi nomlanayotgan obʼektgaga nom qilib tanlanadi. Bu hodisa xalqimiz yuksak maʼnanaviyatining lisoniy ifodasi [4,32].



Oronimlarning hosil bo'lishida onomastik konvertsiya muhim o'r'in tutadi. Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarli o'zgarishlarsiz atoqli ot vazifasiga ko'chish hodisasiidir[5,93].

Bu hodisa toponimiyaning boshqa turlarida bo'lgani kabi oronimlarning hosil bo'lishida ham kuzatiladi. Oronimik konversiya usulida tub asosdan oronimlar yasaladi. Bunda orografik terminlar oronimlashadi: Ag'ba (dovon), Kamar (tog'li hududlarda), Gaza, Kachar (adir), Tarpi (balandlik) va b.; etnonimlar oronimlashadi: Barmoq (yaylov, balandlik), Lochin (cho'qqi), Manqa (adir), O'lmas (tog') va b.; gidrografik terminlar oronimlashadi: Kariz (adir), Orna (jar).

Oronimik konversiya usulida tub asosli so'zlardan oronimlar hosil bo'lishida, asosan, orografik, gidrografik tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar, etnonimlar ishtirok etadi. Sodda tarkibli yasama so'zlardan oronimlarning hosil bo'lishida, asosan tog', dasht, cho'l sharoitlariga xos bo'lgan o'simliklar, daraxtlar nomlari, orografik tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar asos vazifasini bajarib, ularga mavjudlikni bildiruvchi o'zbekcha -li affaksi, turdosh otlardan atoqli ot yasash xususiyatiga ega bo'lgan o'zbekcha -cha, tojikcha -ak afikslari foal qo'llanadi. Qo'shma tarkibli va izofali birikma shaklidagi so'zlardan konversiya usulida oronimlarning hosil bo'lishida nomning bosh komponenti hisoblangan so'z asosan oronimik indikatorlardan, unga qo'shilib yoki birikib, aniqlovchi komponent bo'lib kelgan so'z esa o'simliklar, daraxtlar, hayvonlar, jonivorlar nomlarini ifodalovchi ot turkumiga, turli belgi-xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga xos apelliyativlardan, shuningdek antraponimlar, etnonimlar, gidrografik tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardan va predikativ birikmalardan iborat bo'ladi.

Oronimik transonimizatsiyada bir turdag'i orografik ob'jeekt nomining shu turdag'i boshqa ob'jeekt nomiga o'tishi kuzatiladi. Bunda dara nomi adir nomiga o'tadi: Beshdara; tizma yoki qir nomi dara nomiga o'tadi: Beshqo'l; tog' yoki balandlik nomi dasht nomiga o'tadi: Bo'ynoq (tog', balandlik, dasht); dara nomi kamar nomiga o'tadi: Juvoztosh; jar nomi yaylov nomiga o'tadi: Iymakjar; tog' nomi yaylov nomiga o'tadi: Ko'hsiyo; balandlikda joylashgan joy nomi butun tog' nomiga o'tadi: Maydanak va b.

Orografik ob'jeekt nomi, ya'nni oronimlar boshqa turdag'i ob'jeekt nomiga o'tadi. Bunda oronimlar gidronimlarga o'tadi: Aylanajar (daryo irmog'i), Hisorak suv ombori va b.

Oronimlar oykonimlarga o'tadi: Alasho'r (qishloq), Bag'ishtepa (qishloq), Beshpanja (qishloq), Beshtaxta (qishloq), Biyasig'mas (qishloq), Bobotog' (qishloq) va b.

Maъlumki, geografik termin va toponim bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki birinchisi ob'jeektni sifatlaydi, ikkinchisi esa uni bir qator o'xshashliklardan ajratib turadi. Bular o'zbek tilining umumiyligi va mintaqaviy (dialekt) sohalariga tegishli terminlardir. Oronimlarning tahlili Janubiy O'zbekiston hududida qadim zamondan beri yashagan va yashab kelayotgan xalqlarning, el-elatlar tillarining tarixi o'z aksini topganligini ko'rsatdi. Oronimik terminlar, asosan, etnolingvistik jihatdan turkiy, eroniy (qadimgi so'g'd, fors-tojik), arab, mo'g'ul tillariga mansub lug'aviy birliklardan iborat. Jumladan, tog', qir, tepe, yaylov, qo'l, qashqa kabi terminlar turkiy; baroz, varg', shox, dasht, taxta, gaza kabi terminlar so'g'diy; ko'h, dara, tangi, to'da, sang, g'urum, chambar, sho'r kabi terminlar fors-tojik; aqba, supa, shayit, sahro, burj kabi terminlar arab; mo'la, dovon, qapchig'ay kabi terminlar mo'g'ul tillariga tegishlidir.



Ko'pincha oronimiyada nomlanayotgan ob'yeektning fizik-geografik muhit nuqtai nazaridan xususiyatlari, atrofdagi hudud va alohida ob'yeektlarning xususiyatlari, tashqi ko'rinishi, tarkibiga ko'ra xususiyatlari o'z aksini topadi. Apellyativ leksika asosida shakllangan oronimlar yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, u hududning tabiiy-geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarini aks ettiradi. Insonlarning ongi va tafakkuri orqali singan holda, ular xarakterlovchi yoki baholovchi jihatga ega bo'ladi. Nom ijodkorlari apellyativ leksika tarkibidan toponimik quyi tizim ehtiyojlariga, ijtimoiy taraqqiyotning tegishli bosqichiga va turmush sharoitiga mos keladigan maъlum semantik qatlamlarni tanlaydi. Ob'yeektning o'ziga xos atributi, uni boshqa shunga o'xshash narsalardan ajratib turadigan narsa qo'shimcha taъrifni talab qilmaydi, shuning uchun uni nomenklatura atamasi bilan belgilash aholi uchun etarli bo'ladi" [6, 71].

Leksik (apellyativ) va toponimik tizimlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Joy nomlari maъlum bir dunyoning ko'plab voqeliklarini o'zida aks ettiradi. Oronimlar toponimiyaning boshqa turlariga nisbatan barqaror va motivlashgan bo'lib, natijada ular leksik tizimning vaqt o'tishi bilan yo'qolgan bo'g'inlarini ham, hozirgi vaqtida dolzarbligini yo'qotmagan bo'g'inlarini ham uzoq vaqt saqlab qolishlari mumkin.

Antroponomalar mahsuldor toponim yasovchi asoslardir. Antroponomalar asosida oronimlarning vujudga kelishi ham xarakterli bo'lib, ular oronimlar tarkibida turli sabab va omillar tufayli qatnashishi mumkin.

Tahlillarning ko'rsatishicha, antropooronimlar ko'pincha mulkiy mansublik tamoyili asosida shakllanar ekan. Orografik ob'yeekt (tog', tepa, qir, yaylov, dasht, dara va b.)lar kimga tegishli, qarashli bo'lsa o'sha kishining nomi bilan atalishi mumkin: Avazgardon (tepa), Odil do'g'ma (yaylov), Qoraboytepa (tepa), Murothalqa (joy), Pirmatbobotepa, Oytug'ditepa va b.

Har qanday hududning toponimik tizimi dialekt leksika, shevaning o'ziga xos xususiyatlarini maъlum darajada aks ettiradi. Kuzatishlarga murojaat qilsak, dialektologik tadqiqotlarning ko'plab savollariga javob berish mumkin. Shuni taъkidlash lozimki, mahalliy shevaga eъtibor bermay turib, maъlum bir sheva muhitida vujudga kelgan va faoliyat ko'rsatayotgan toponimlarning shaklini tarixiy jihatdan tiklab, semantik xususiyatlarini to'g'ri tushuntirib bo'lmaydi.

Oronimlar maъlum bir hudud miqyosida yaratiladi, shuning uchun ular yaratilishiga ko'ra dialektal xarakterda bo'ladi. Orografik ob'yeektlar dastlab, shu ob'yeekt bilan munosabatda bo'lgan bir guruh kishilar (yaqin atrofdagi ovul, qishloq aholisi yoki chorvadorlar, dehqonlar) tomonidan nomlanishi mumkin. Nomlanish jarayonida shu kishilar nutqiga xos bo'lgan lug'aviy birliklar ishtirok etadi. Bunda adabiy tilga xos bo'lgan so'zlar bilan bir qatorda, mahalliy xarakterga ega bo'lgan so'zlardan nomlar yuzaga keladi. Nomlanish jarayonida umumxalq tiliga tegishli bo'lgan so'zlar ham mahalliy til sharoitida yangi maъno xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin. O'z navbatida, maъlum bir hudud doirasida qo'llanadigan dialektal so'zlar ham o'z qobig'idan chiqib, turli hududlarga tarqalishi va u erlarda o'ziga xos yangi, ammo umumiyligi maъnolarda qo'llanish xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Janubiy O'zbekiston oronimiyasida mahalliy xarakterga ega bo'lgan bunday so'zlar ancha miqdorni tashkil etadi. Ular orografik termin sifatida shakllanish bosqichini bosib o'tib, terminlarga aylangan. Ularning bir qismi faqat termin sifatida qo'llanadi, bir qismi esa oronimik indikator sifatida orografik ob'yeektlarning nomlarini yasashga xizmat qiladi.



Ma'lumki, voha aholisining bir qismi o'tmishda chorvachilik bilan, bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ularning kasbi-kori, turmush tarzida er rel'efi shakllari – tog'lar, adirlar, lalmikor yerlar, turli balandliklar, daralar, jarliklar, dala-dashtlar va h.k. lar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Mahalliy aholining bunday ob'jeektlar bilan bo'lgan munosabatlari natijasida uzoq davrlar maboynidagi ularning nutqida shu ob'jeektlarning turli shakllarini ifodalaydigan so'zlar, terminlar, birikmalar ijod qilingan bo'lib, ular o'lka oronimiyasining yuzaga kelishida muhim rol' o'ynagan. Masalan,depsan//dapsan - "yassi balandlik, qavarib yoki bo'rtib chiqqan do'nglik", qovoq - "usti yassi, cho'ziq va tevaragi qiyalikdan iborat do'nglik", taxta -"tog'larning, tog' tizmalarining ustki qismidagi tekis maydon", xovar -"tekis joy, chovrv//chobra "adir, dasht, yaylov", shiram "bir tomoni tik jarlik bo'lib, ikkinchi tomoni tog' etagi yoki adirga tutashib ketgan joy", qaloq - "toshdan hosil bo'lgan yoki qilingan tabiiy, sun'iy to'siq, devor", qat - "tosh qatlami", qatov - "kichik cho'qqi, toshli qoya", xuchchi - "tosh, cho'qqi, balandliklarning yuqori nuqtasi, uch qismi", sina - "qiya, yona joylarning yuqori qismi", zov, jobiz//joviz, o'ra, o'r, ko'tal, jorma, qaznoq, chak kabi so'zlar shular jumlasidandir.

Mintaqaning toponimiyasini tahlil qilish uning ham tematik, ham leksiko-semantik guruuhlar, shuningdek, alohida birlik doirasidagi semantik makonining xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Toponimik ma'zumotlar dialektlarning leksik tizimining asosiy jihatlari haqidagi bilimlarimizni tasdiqlaydi va kengaytiradi, dunyoning yanada to'liq va rang-barang lingvistik manzarasini yaratishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oronimlarda til leksik tizimining eng barqaror bo'g'ini sifatida vaqt o'tishi bilan til egalari nutqida faol qo'llanilishidan tushib qoladigan leksika saqlanib qoladi va mustahkamlanadi. Mintaqa nominatsiyasi tizimidagi etishmayotgan komponentlar to'ldirilib, bu uzoq davrlarga borib taqaladigan leksik hodisalarning chegaralarini haqiqatda tiklash va mintaqa leksikasining tarkibi, semantikasi va so'z yasalish xususiyatlarini aniqlashda diaxronik tuzatishlar kiritishga asos bo'ladi.

Oronimlarning harakatlanish yo'llarini kuzatish va shu orqali ma'zum darajada etnogenez muammolarini hal etish sinxron nuqtai nazardan bizga dunyoning til manzarasini to'liqroq tasvirlash imkonini beradi.

References:

1. Podol'skaya N.V. Slovar' russkoy onomasticheskoy terminologii. M.: «Nauka», 1978. 200 s.
2. Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar'. - M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1990. - 685 s.
3. Superanskaya A. V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo/A. V. Superanskaya. - M.: Nauka, 1973. - 365 s.
4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009. – B 32.
5. Superanskaya A.V. Struktura imeni sobstvennogo (fonologiya i morfologiya). – Moskva, 1969. – 206 s.



6. Klimkova L.A. Izuchenie toponimii yuzhnix rayonov Gor'kovskoy oblasti i problemi sostavleniya mikrotoponimicheskogo slovarya // Dialekti i toponimiya Povolj'ya. - Cheboksari, 1990.
7. Murzaev E.M. Mestnie geograficheskie termini i ix rol' v toponimii // Voprosi geografii. - 1970. - № 81. - S. 53-89.
8. Paxomova V.D. O metaforicheskix nazvaniyax v toponimike // Voprosi toponomastiki. - Vip. 4. - Sverdlovsk, 1970. - S. 30-34.
9. RudnixA.I. Semanticheskie modeli v gidronimike // Voprosi toponimiki. - Sverdlovsk, 1972. - Vip. 6. - S. 35-75.
10. Rut R.M. Obraznaya nominasiya v russkom yazike. - Yekaterinburg, 1980.
11. Sposobi nominasii v sovremennom russkom yazike. - M.: Nauka, 1982.